



ARTICLE INFO

Received: 26th March 2025

Accepted: 30th March 2025

Online: 31st March 2025

KEYWORDS

Copyright, artificial intelligence, author, creative work, intellectual property, AI-generated content.

COPYRIGHT AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Sharipova Nilufar Akhmadjon qizi

Student of the National University of Uzbekistan named after

Mirzo Ulugbek

Email: nilufarsharipova6699@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15123500>

ABSTRACT

In the 21st century, as technology rapidly advances, artificial intelligence (AI) is driving innovation across various fields. From programming to art and creative work, AI-generated content can be nearly indistinguishable from human-created works. However, this raises important questions in the field of copyright law: Who owns the content created by AI? Can artificial intelligence be recognized as an author? This article explores the issues surrounding AI and copyright, different approaches taken by various countries, and potential legal challenges in the future.

АВТОРСКОЕ ПРАВО И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ

Шарипова Нилуфар Ахмаджон кизи

Студент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Электронная почта: nilufarsharipova6699@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15123500>

ARTICLE INFO

Received: 26th March 2025

Accepted: 30th March 2025

Online: 31st March 2025

KEYWORDS

Авторское право, искусственный интеллект, автор, творческое произведение, интеллектуальная собственность, контент, созданный искусственным интеллектом.

ABSTRACT

В XXI веке, когда технологии стремительно развиваются, искусственный интеллект (AI) создаёт инновации в различных сферах. От программирования до искусства и творческой деятельности — контент, созданный искусственным интеллектом, может практически не отличаться от произведений, созданных человеком. Однако этот процесс порождает важные вопросы в области авторского права: Кому принадлежит контент, созданный искусственным интеллектом? Может ли искусственный интеллект быть признан автором? В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с AI и авторским правом, различные подходы в разных странах, а также возможные юридические проблемы в будущем.

MUALLIFLIK HUQUQI VA SUN'IY INTELEKT

Sharipova Nilufar Axmadjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi



ARTICLE INFO

Received: 26th March 2025
Accepted: 30th March 2025
Online: 31st March 2025

KEYWORDS

Mualliflik huquqi, sun'iy intellekt, muallif, ijodiy asar, intellektual mulk, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontent.

ABSTRACT

Texnologiya jadal rivojlanib borayotgan XXI asrda sun'iy intellekt (AI) turli sohalarda yangiliklar yaratmoqda. Dasturlashdan tortib san'at va ijodiy ishlargacha, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontent inson tomonidan yaratilgan mahsulotlar bilan deyarli bir xil darajada bo'lishi mumkin. Biroq, bu jarayon mualliflik huquqi sohasida muhim savollarni keltirib chiqarmoqda: Sun'iy intellekt yaratgan kontent kimga tegishli? Sun'iy intellekt muallif sifatida tan olinishi mumkinmi? Ushbu maqolada AI va mualliflik huquqi masalalari, turli mamlakatlarning yondashuvi hamda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy muammolar tahlil qilinadi.

Mualliflik huquqi – bu ijodiy asarlarning mualliflariga beriladigan eksklyuziv huquqlar majmuasidir. Bu huquqlar muallifning ruxsatisiz uning asaridan foydalanishni taqiqlaydi. Odatda, mualliflik huquqi faqat inson tomonidan yaratilgan asarlarga tegishli hisoblanadi. Muallif va huquq egasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi „Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida“¹gi qonunda shunday ta'rif berilgan. Muallif — ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs; Huquq egasi — mualliflik huquqiga nisbatan muallif yoki uning merosxo'rlari, turdosh huquqlarga nisbatan ijrochi yoki uning merosxo'rlari, fonogrammani tayyorlovchi, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot, shuningdek shartnomada yoki boshqa asos bo'yicha asarlardan yoxud turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish huquqini olgan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarning mualliflik huquqi bo'yicha turli savollar mavjud:

1.Sun'iy intellekt mustaqil muallif sifatida tan olinishi mumkinmi?

Ko'pgina mamlakatlarning qonunchiligiga ko'ra, mualliflik huquqi faqat insonga tegishli bo'lishi mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek O'zbekiston respublikasi „Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida“gi qonunda ham muallif ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs deya aytilgan. Hamda, AQSh Mualliflik huquqlari idorasi sun'iy intellekt mustaqil ravishda yaratgan kontent mualliflik huquqi bilan himoyalanganligini ta'kidlaydi.

Biroq Xitoy va Yaponiya kabi mamlakatlarda sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentning huquqiy maqomi bo'yicha yangi qonun loyihalari ishlab chiqilayotgani haqida aytilmoqda. Ayrim texnologiya kompaniyalari esa (Google (alphabet), Microsoft, OpenAi va boshqa kompaniyalar) sun'iy intellekt yaratgan mahsulotlarning mualliflik huquqi sun'iy intellekt tizimini yaratgan shaxslarga yoki sun'iy intellektning o'ziga tegishli bo'lishi kerakligini aytishmoqda.

¹Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonun



Sun'iy intellektni muallif sifatida tan olish uchun u huquqiy shaxs yoki subyekti sifatida qaralishi kerak. Hozirgi kunda sun'iy intellekt hech bir mamlakatda mustaqil huquqiy shaxs sifatida tan olinmagan, shuning uchun bu g'oya hali qonunchilikka kiritilmagan.

Sun'iy intellekt dasturini yaratgan kompaniya sun'iy intellekt yaratgan kontentlarning egasi bo'lishi mumkinmi?

Sun'iy intellekt (SI) tomonidan yaratilgan kontentning mualliflik huquqi bo'yicha yondashuvlar turli davlatlarda turlicha talqin qilinadi. Quyida ayrim mamlakatlarning bu boradagi yondashuvlari keltirilgan²:

1. Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh): AQShda sun'iy intellekt yordamida yaratilgan asarning muallifi sifatida uni yaratgan yoki uning nomidan asar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar bergan shaxs tan olinadi.

2. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Rossiya: Bu hududlarda muallif asar yaratilishiga katta hissa qo'shgan shaxs sifatida e'tirof etiladi.

3. Xitoy: Xitoyda sun'iy intellekt yordamida yaratilgan asar muallifligining tan olinishi asarni yaratishda insonning ijodiy hissasini jamoatchilik tomonidan e'tirof etilishi bilan bog'lanadi.

4. O'zbekiston: O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan materiallar mualliflik huquqi obyektlariga kirmaydi. Shunga ko'ra, bunday materiallar qonun va O'zbekiston Respublikasining xalqaro kelishuvlari bilan berilgan himoya vositalaridan foydalanmaydi. Kelajakda sun'iy intellekt va mualliflik huquqi masalasi yanada dolzarb bo'lishi aniq. Ba'zi taxminlarga ko'ra, yangi qonunchilik sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarning egasini aniq belgilaydi.

Kelajakda sun'iy intellekt (AI) bilan bog'liq mualliflik huquqi sohasida turli huquqiy muammolar yuzaga kelishi mumkin

1. AI mualliflik huquqiga ega bo'lishi kerakmi? Hozirgi kunda ko'pchilik mamlakatlarda Sun'iy intellekt mustaqil muallif sifatida tan olinmaydi. Kelajakda sun'iy intellekt yanada rivojlanib, mustaqil ravishda murakkab asarlar yaratishga qodir bo'lsa, huquqiy jihatdan bu masala qayta ko'rib chiqilishi aniq. Sun'iy intellekt muallif sifatida tan olinsa, mualliflik huquqi Sun'iy intellekt egasiga, dasturchisiga yoki foydalanuvchisiga berilishi kerakmi degan savol paydo bo'ladi.

2. Mualliflik huquqi egasining aniqlanishi, AI yaratgan kontent ustidan kim nazorat o'tkazadi? Bu savol bo'yicha hozirda 3 ta yechim mavjud:

1. Sun'iy intellekt dasturchisi (sun'iy intellekt modelini yaratgan kompaniya)

2. Sun'iy intellekt foydalanuvchisi (Sun'iy intellektni ma'lum natijaga yo'naltirgan inson)

3. Sun'iy intellekt egasi (Sun'iy intellektni yaratgan platforma egasi yoki kompaniya)

Biroq qaysi biri aniq yechim bo'la oladi? qaysi davlat qanday qonun qabul qiladi? Bu haligacha noaniq savol bo'lib qolmoqda.

3. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentdan noqonuniy foydalanish. Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan matnlar, rasmlar, videolar yoki musiqa himoyalansa,

² https://www.researchgate.net/publication/366474594_



ulardan hech qanday ruxsatnomasiz yoki tijorat maqsadlarida foydalanish ehtimoli oshadi. Bu esa ijodkorlar va ishlab chiqaruvchilar uchun muammolar tug'dirishi mumkin.

4. Plagiat va mualliflik huquqi buzilishi. Sun'iy intellekt tizimlari ko'pincha oldindan mavjud bo'lgan ma'lumotlarga asoslangan holda yangi kontent yaratadi. Agar Sun'iy intellekt mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlarni o'z ichiga olgan holda yangi mahsulot yaratsa, bu plagiat hisoblanadimi? Bunday holatlar huquqiy nizolarga olib kelishi mumkin.

5. Xalqaro me'yorlarning har xil bo'lishi. Har bir davlat mualliflik huquqiga oid turli qonunlarga ega. Masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi AI yaratgan kontentga mualliflik huquqi bermaydi, lekin ba'zi mamlakatlar bu borada boshqa yo'nalishda qaror qabul qilishi mumkin. Kelajakda xalqaro darajada AI bilan bog'liq mualliflik huquqi bo'yicha yagona huquqiy tizim shakllanmasa, transmilliy huquqiy mojarolar yuzaga kelishi mumkin³.

6. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlardan tijorat maqsadlarida foydalanish. Agar Sun'iy intellekt yaratgan mahsulotdan daromad olinadigan bo'lsa, bu daromad kimga tegishli? Masalan, Sun'iy intellekt tomonidan yozilgan kitob, chizilgan rasm yoki yaratilgan qo'shiq sotilganda, undan keladigan daromadni kim olishi kerak?

7. Sud jarayonlari va javobgarlik muammolari. Agar Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontent mualliflik huquqini buzsa yoki noqonuniy ishlatilsa, kim javobgar bo'ladi? Masalan, agar Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan video mualliflik huquqiga zid bo'lsa, kim sudga tortiladi – Sun'iy intellekt yaratuvchisi, foydalanuvchisi yoki Sun'iy intellektning o'zimi?

Kelajakda Sun'iy intellekt va mualliflik huquqi masalasida turli huquqiy muammolar paydo bo'lishi aniq. Buni tartibga solish uchun yangi qonunlar, xalqaro kelishuvlar va sud amaliyotlari ishlab chiqilishi kerak bo'ladi. Qonunchilik Sun'iy intellektning ijodiy jarayondagi rolini aniqlash hamda mualliflik huquqi egaligini belgilash uchun moslashuvchan bo'lishi zarur.

References:

1. Intellektual mulk. Darslik. TDYU 2020
2. Filipova I.A. "Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish". - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. – 179 bet.
3. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun (20.07.2006)
4. <https://www.researchgate.net/publication/366474594>

³ <https://www.researchgate.net/publication/366474594>